YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARGA O‘RGATISH USLUBI

Akramov Diyorbek Ravshan o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: akramovdiyorbek@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada futbol sport turida yosh futbolchilarning maydonda bajaradigan harakatlarini tavsiflash masalalari yoritilgan bo‘lib futbolchilarning harakatlarini tashkil etishda inobatga olinadigan omillar jihatlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Himoya, hujum, futbol, sport, texnika, jismoniy tayyorgarlik, to‘p.

Kirish. Zamonaviy futbolda barcha harakat amallari maqsadga yo‘naltirilgan va rasional bo‘lishi uchun yosh futbolchilarni mos ravishdagi umumiy va maxsus texnik-tatkik tayyorgarligini yaxshilash zarur bo‘ib, u o‘yin harakatlarining asosi hisoblanadi va ongning faol ishtirokida o‘z harakatlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Harakat ko‘nikmasini shakllantirish paytida, yosh futbolchilarda texnik usul va uning elementlari to‘g‘risida harakat tasavvuri yuzaga keladi. Ular, qisqa vaqt ichida xilma xil harakatlarni bajarishlari, har qanday o‘yin holatida tezkor qaror qabul qilishlari va bunda, yugurish tezligini nazorat qilishlari, darvozagacha bo‘lgan masofani baholashlari, yaxshi reaksiyaga ega bo‘lishlari, maydondagi har xil holatlardan turib darvozaga qarata aniq zarba berishlari, tezkor qaror qabul qilishlari, fazo va vaqt chegaralangan, ayrim paytlarda raqib tomonidan bosim o‘tkazilgan holatdagi o‘yin paytida yuzaga keladigan vazifalarni hal qilishlari kerak. Pedagogik kuzatishlar futbol bo‘yicha mashg‘ulotarda o‘tkazilgan bo‘lib, undagi vazifalar usullarni rasional tanlash, ishni amalga oshirishning aniq tashkiliy shakllantirish, olingan ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan qayta ishlash va tahlil qilish yo‘li bilan hal qilingan. Asosiy pedagogik tajribalarda yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishning optimal usullari asoslangan va uni trenirovkaning yillik siklida takomillashtirish samaradorligi aniqlangan. Tadqiqotning uchinchi bosqichida pedagogik tajribada olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash amalga oshirilgan. Shug‘ulanuvchilarning biri koridordan bir necha qadam narida yon tomonda turadi. Qolganlar markaziy doirada joylashadi. Birinchi ishtirokchi to‘pni birinchi ustunga qadar tepib olib boradi va uni koridordan tashqarida turgan o‘yinchiga pastdan tepib uzatadi. Ushbu

o‘yinchi to‘pni birinchi o‘yinchiga qaytaradi va u, to‘pni keyingi ustunga qadar tepib olib boradi va uni yana koridordan tashqarida turgan o‘yinchiga uzatadi va h.k. Birinchi o‘yinchi oxirgi ustundan o‘tganidan keyin jarima maydoniga kiradi va darvozaga qarata zarba beradi. So‘ngra, ushbu mashqni keyingi o‘yinchi bajaradi. Mashqni o‘zlashtirilishiga qarab, keyinchalik o‘yinchilar to‘pni bir marta tepish bilan bir-biriga uzatishadi. Jamoa o‘yinchilari o‘yin vaqtida o‘zaro harakat qilishganida har xil taktik kombinatsiyalarni amalga oshirishadi – bu, har xil taktik vazifalarni hal qiladigan ikkita yoki bir nechta o‘yinchilarning harakatlaridir. Trener, yosh futbolchilarni taktik kombinatsiyalarga o‘rgatishi paytida, bitta zveno yoki chiziq o‘yinchilari, jumladan har xil zvenolarda (ikkita, uchta va undan ko‘p o‘yinchilar) o‘ynaydigan futbolchilar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va uyg‘unlikka erishishga intilishi kerak. Yosh futbolchilar zaruriy texnik usullarni, ma’lum darajadagi nazariy bilimlarni va o‘yinchilar o‘rtasida hamkorlikda harakat qilishni o‘zlashtirishi darajalariga ko‘ra, ularni jamoaviy taktik harakatlarga o‘rgatishga o‘tish maqsadga muvofiq, bunda, har bir yosh futbolchining moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Yosh futbolchilarning o‘quv-trenirovka amaliyotida o‘yin mashqlarini keng qo‘llash tavsiya qilinadi va ular yordamida ma’lum bir taktik harakatlarni rivojlantirish, qo‘yilgan vazifalar va shug‘ullanuvchilarning tayyorgarligi darajasiga bog‘liq holda o‘yinchilar sonini va maydonning kattaligini o‘zgartirish bilan o‘yinchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni va o‘zaro aloqani ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Yosh futbolchilarni jamoaviy taktik harakatlarga o‘rgatishning asosiy vositasi o‘quv o‘yini hisoblanadi. Uni boshlashdan oldin, trenerga o‘yin ssenariysini ishlab chiqish va o‘yinchilar bilan zaruriy suhbat o‘tkazish, o‘quv o‘yini vaqtida esa – o‘yinchilarning bitta guruhidan boshqasi oldiga, alohida holatlarda tanbeh va ko‘rsatmalar berish bilan harakatlanishi tavsiya qilinadi. Jamoaviy taktik harakatlarni mustahkamlash va takomilashtirish o‘rtoqlik va taqvim o‘yinlari jarayonida amalga oshiriladi, avvaliga kuchsizroq raqib tanlanadi, keyin kuchi teng bo‘lgan va undan keyingina kuchli raqib tanlanadi. Mazkur o‘yinlarning asosiy maqsadi – jamoani va har bir o‘yinchini amaliyotda tekshirib ko‘rishdan iborat. Musobaqa faoliyatini baholash uchun individual-jamoaviy texnik-taktik harakatlarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish qo‘llaniladi. Pedagogik tajribani o‘tkazish paytida, biz, o‘yinchilarni musobaqa bosqichidagi texnik-taktik harakatlarini qayd qildik. Tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlili yosh futbolchilarning o‘yin faoliyati optimal sharoitlarda o‘tishini (bu, o‘yin faoliyatida juda muhim), shu bilan birga, qiyinlashtirilgan sharoitlarda o‘tishini ko‘rsatadi. Barcha texnik-taktik harakatlarning deyarli yarmi qiyinlashtirilgan sharoitlarda o‘tishi futbol uchun xarakterli bo‘lib, ushbu harakatlarning yarmini brak tashkil qiladi. Tadqiqot davomida barcha guruhlarda o‘yin faoliyatining nafaqat miqdoriy, balki sifat

koʻrsatkichlari ham oʻzgargani koʻrinadi va ular oʻzaro ancha katta darajada farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yil 4 dekabrdagi “oʻzbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5887-sonli farmoni. xalq soʻzi gazetasi.6-dekabr 252-son.

2. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning oʻquv mashgʻulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanama. T., OʻzDJTI. 2011. – 38 B.

3. Akramov R.A., Tixonov V., Nurimov R. Planirovaniye i organizatsiya uchebnotrenirovochnogo prosessa vыsokokvalifisirovannыx futbolistov: Metod. rekomendasii.-T., 1997.-57 S. 6. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – T.: ZARQALAM, 2004. – 334 B.

4. Qutlimuratov I.X. Futbolning rivojlanish tarixi, musobaqalarni tashkil etish va oʻtkazish. Hakamlik qilish usuliyati. oʻquv qoʻllanma. Chirchiq. 2022. – 168 S.

5. Qutlimuratov I.X. Chidamkorlikni ustuvor rivojlantirish asosida futbol

hakamlarining maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish. Avtoref. dis.dok.filosofii (PhD) Chirchik 2022.-59 S.